Nizomiy nomidagi O'zMPU Dotsent

To'lqinova Xolida Tolqunovna

O'ZBEK MILLIY XALQ HUNARMANDCHILIGINING RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA TARMOQLARI.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O'lkamiz zaminidagi tarix qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berishi usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan bo'lib, asrlar osha hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda.

Аннотатсия: В данной статье рассматриваются виды народного декоративно-прикладного искусства в многовековой истории узбекского народа, составляющие наиболее примечательную и популярную часть нашего богатого и разнообразного культурного наследия. Как свидетельствуют памятники, найденные в результате раскопок исторических слоев на территории нашей страны, деятельность по созданию предметов посредством художественной обработки человеческого тела зародилась в каменном веке и продолжается на протяжении веков до наших дней.

Annotation: This article examines the forms of folk arts and crafts throughout the centuries-old history of the Uzbek people, which constitute the most remarkable and popular part of our rich and diverse cultural heritage. As evidenced by artifacts discovered during excavations of historical layers across our country, the practice of creating objects through the artistic treatment of the human body originated in the Stone Age and has continued throughout the centuries to the present day.

Kalit so'zlar: Qadriyatlar, pedagog, ijodkorlik, kasb-hunar, o'qitish, ta'lim, qobiliyat, rivojlanish, texnologiya.

Ключевые слова: Ценности, педагогика, креативность, профессия, преподавание, образование, способности, развитие, технологии.

Keywords: Values, pedagogy, creativity, profession, teaching, education, abilities, development, technology.

Xalq hunarmandchiligi moddiy madaniyatimizning eng qadimiy va muhim turlaridan hisoblanadi va tasviriy hamda amaliy san'atining ko'pdan-ko'p sohalari bilan uyg'unlashib ketadi. Ammo tasviriy va amaliy san'at, buyumlarga badiiy ishlov berish jarayoni hamda xalq hunarmandchiligining o'ziga xosligi, yo'llari, xususiyatlari bir-biridan farqlanadi. Respublikamizda mavjud bo'lgan xalq hunarmandchiligining Toshkent, Samarqand, Buxoro, Nukus, Xiva, Termiz, Urganch, Namangan, Andijon, Farg'ona, Chust, Shahrisabz va boshqa markazlarining ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos bo'lib, o'ziga xosligi jihatidan bir-biridan ajralib turadi. Hunar – muayyan tayyorgarlikni talab etadigan va tirikchilik manbai bo'lgan ijodiy mehnat faoliyati. Hunarli – biror hunarni puxta egallagan shaxs. Hunarmand – biror hunar turi bilan shug'ullanuvchi usta. Hunarmandchilikning asosiy belgilari oddiy mehnat qurollari yordamida biror ishning bajarilishi va ishlab chiqarishning yakka tartibdaligidadir. Hunarmandchilik jamiyatda azaldan erkaklar va ayollar o'rtasidagi mehnat taqsimotini

ko’rsatuvchi o’ziga xos oyna bo’lib kelgan. Erkaklar ko’pincha bozorda sotish uchun, xotin-qizlar esa oila ehtiyoji uchun mo’ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan shug’ullangan. Kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, gazlama ishlab chiqarish, tikuvchilik ustaxonalarida kiyim tikish, zardo’zlik, naqqoshlik, yog’och va ganch o’ymakorligi faqat erkaklar shug’ullanadigan ish sanalgan. Xotin-qizlar esa kashtado’zlik, gilam to’qish, namat bosish bilan band bo’lgan. Ular shuningdek, arzon paxta matolar to’qishgan, sopol, ganch o’yinchoq, idishlar yasashgan. XX asrga kelib, bu an‘anaviy turmush tarzi keskin o’zgardi. Shahardagi xotin-qizlar an‘anaviy hunarmandchilik bilan mutlaqo shug’ullanmay qo’yishdi, chekka qishloqlardagi ayollargina ajdodlari kasb-korlarini saqlab qolishdi. Sho’ro davlati tanazzulga yuz tutganidan keyin an‘anaviy hunarmandchilikka munosabatda keskin o’zgarish ro’y berdi. Xotin-qizlar ehtiyoj tufayli hunarmandchilik ishlab chiqarishi bilan faol shug’ullanishga kirishdilar. Chunki sobiq sho’ro davrida iqtisodiyotning barbod bo’lishi barchani yangi ish topishga majbur etdi. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida tanazzuldan chiqish uchun an‘anaviy hunarmandchilik bilan shug’ullanish maqbul yo’l bo’lib qolgan edi. Shu tariqa kutilmagan o’zgarish yuzaga keldi – hunarmand ayollar bozorni egallashdi. Xalq hunarmandchiligi naqqoshlik, ganchkorlik, zargarlik, yog’och o’ymakorligi, metal o’ymakorligi, kashtachilik, quroqchilik, zardo’zlik, gilamchilik, gazlama to’qish, ko’pchilik, pazandachilik, yog’ochlarni kuydirib ishlash, kulolchilik, kosibchilik, mahsido’zlik, sangtaroshlik, temirchilik, pichoqchilik, anjomsozlik, qulfsozlik, misgarlik, ignasozlik kabi sohalarga ega bo’lib, o’zida mehnat va kasb ta‘limining ko’pgina xususiyatlari – amaliyligi, ijodiyligi, milliyligi, mahalliy xom ashyolarni topish va ta‘mirlashning qulayligi, o’g’il va qiz bolalar mehnatining o’ziga xosligi, murakkab qurilmalar, uskunalar, asboblar va dastgohlar talab qilmasligi; mashg’ulotlarni tashkil etishning soddaligi bilan ajralib turadi. Natijada bu sohani yetarlicha o’rgangan, ma‘lum kasblarni egallagan yoshlarning ishsiz qolmasliklari, mehnat bozorining raqobatbardoshligi bilan alohida e‘tiborga molikdir. Bugungi kunda ishlab chiqarilgan hunarmandchilik buyumlarini uch guruhga bo’lish mumkin: ro’zg’orda foydalanish (asosan qishloq tumanlarida), bozor uchun tayyorlangan buyumlar, shuningdek, ko’rgazmalarda ishtirok etishga mo’ljallangan hunarmandchilik buyumlari.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san’ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O‘lkamiz zaminidagi tarix qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berishi usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan bo‘lib, asrlar osha hozirgacha uzluksiz davom etib kelmoqda.

“Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” fanining asosiy maqsadi va vazifasi – bo‘lajak texnologik ta’limi o‘qituvchilarni o‘z kasbining ustasi qilib tarbiyalash, ularga boy milliy - madaniy tariximizni chuqur o‘rgatish, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an’analarimiz, xalq xunarmandchiligimiz tarmoqlarini qayta tiklash va rivojlantirish kabi masalarni yoritib berishdir.

O‘zbek xalq amaliy san’ati qadimiyligi hamda boy madaniyati bilan butun dunyoga mashxurdir. Uning yer usti va tuproq ostidagi qismi ulkan bir tarixiy muzey. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Farg‘ona va boshqa shaharlardagi har bir tarixiy obida, har bir xalq amaliy bezak san’ati namunasi bobokalonlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas, teran mazmunln va tarixiy bebaho san’at asarlari, jahon madaniyatining durdonalaridan bo‘lgan badiiy va ma’naviy merosni tashkil etadi. Asrlar davomida orttirilgan madaniy va ma’naviy boyligimiz, xususan o‘zbek milliy xalq amaliy bezak san’atining eng ko‘p rivojlangan turlari: ganchkorlik, naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi, toshtaroshlik, suyak o‘ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, eargarlik, kashtachilik, zardo‘zlik, gilamchilik kabilarning o‘ziga xos tomonlari, bajarish texnologiyasi, ustalarning haqiqiy asl nomlari, o‘ziga xos maktablari, yaratgan uslublari sobik sho‘ro tizimi vaqtida asta-sekin yo‘qolib ketish xavfi ostida koldi.

Bugungi kunda mustaqil mamlakatimizda xalqimizving asrlar bo‘yi yaratgan ijodiy mehnati natijasida yaratgan amaliy bezak san’atini ko‘z qorachig‘idek saqlash, qadrlash, ulardan amaliy foydalanish, ular orkali yoshlar estetik didini o‘stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar ochildi. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va musavvirlar go‘zallikka intilishga chakirganlar.

Bobomiz Amir Temur hunar va ilm egalari, yirik mutaxassis olimlar yordamiga tayanib matematika, geometriya, me’morlik, astro-nomiya, adabiyot, tilshunoslik, tarix, musiqa, tasviriy san’at kabi sohalarni rivojlantirishga katta ahamiyat berdi. Shaharlaryaning har tomonlama chiroyli va ulug‘vor qilishga intildi. Jumladan, tosh xamda g‘ishtlik yo‘llar, keng, katta, ravon ko‘chalar qurdirgan. Bir-biridan mahobatli binolar soldirgan. Samarqandning Registon maydonidagi Ulug‘bek, Sherdor va Tillaqori madrasalari, Shoxi zinda va Go‘ri Amir maqbaralari, Bibixonim masjidi, Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Toshkentdagi Ko‘kaldosh madrasasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy va boshqalar bugungi kunda dunyoga mashhurdir. XVIII asr oxiri - XIX asrlarda Qo‘qonda, Farg‘ona, Buxoro kabi shaharlarda yetuk xalq ustalari yetishib chiqdi. Misgarlik, nakqoshlik, ganchkorlik, chilangarlik va boshqa san’at turlari rivojlandi. Qadimda hunar muqaddas sanalgan. Har bir xalq kelajak avlodlariga o‘zidan qoldirgan takrorlanmas xunarlari bilan kadrlangan, O‘zbekiston qadimda hunarmandlar markazi bo‘lgan desak xato qilmagan bo‘lamiz. Masalan, Andijon vyloyatida, Samarkand viloyatida Urgut, Farg‘ona viloyatida Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan viloyatida Chust xunarmandchilik markaziga aylangan.

Xunarmandlar o‘sha davrlarda mahallalarga bo‘linib yashagan. XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Buxoroda bo‘yrachilar maxallasi bo‘lib, u yerda umuman Buxorodagi xamma to‘quvchi ustalar - 120 ta oila yashagan. Har bir xunarda mahalladagi qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasida raqobat bo‘lgan. Chunki, kimning mahsuloti sifatli bo‘lsa, xalq o‘shaning ishlab chiqargan mahsulotini sotib olgan. Shuning uchun har bir usta sifatli mahsulot tayyorlagan. Har bir ustaning o‘z rastasi bo‘lgan. Bozorda, odatda, bozor begi bo‘lgan. U barcha rastalarga kiritilgan mollarni kuzatib ularga narx belgilab chiqqandan keyin savdo-sotik boshlanar edi. Sifatsiz mahsulot ishlagan ustaning bozori qasodga uchragan.

1870 yildan boshlab o‘zbek xunarmandlarining ishlari xalkaro ko‘rgazmalarda namoyish etila boshlandi. Jumladan, o‘zbek xunarmand ustalari jahon bo‘yicha ko‘rgazmalarda, ya’ni 1873 yilda Venada, 1878, 1900, 1910 yillarda Parijda, 1887 yilda Stokgolmda, 1888 yili Kopengagenda, 1983 yilda Chikagoda, 1902 yilda Glazgoda, 1907 yilda Bog‘dotda, 1910 yilda Myunxenda, 1914 Berlinda va Londonda namoyish etildi.

1913 yilda o‘zbek xunarmand ustalari butun Rossiya xunarmandlik sanoat ko‘rgazmasida qatnashib, bronza medaliga sazovar bo‘ldi. Mamlakatimizda muzey tashkil etilishi ham o‘zbek xalq madaniyatini rivojlantirishda muxim bosqich bo‘ldi. Muzeylarda xalqimizning xunarmandchilik buyumlarini to‘plash, saqlash, o‘rganish va tadqiqot ishlarini bajarish asosiy vazifa hisoblanadi. 1976 yilda Toshkentda Oybek nomidagi O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi tashkil etildi. Samarqandda xalq muzeyi va Farg‘ona xalq muzeylari tashkil etildi, muzeylarda xalq xunarmaqdchilik buyumlari, asbob-uskunalar, ustalarimizning sanat asarlari to‘plandi va namoyish etildi. 1918 yili Samarqanda badiiy maktab tashkil etildi. 1930 yillarda Toshkentda o‘quv-ishlab chiqarish kombinati tashkil etildi. U yerda hunarmandlar yetishtirib chiqarildi.
1952 yili Toshkentdagi P.P. Benkov nomli jumxuriyat badiiy bilim yurtida xalq amaliy san’ati bilim yurti ochildi. Unda Davlat mukofoti laureati Usta Shirin Murodov, Usta Toshpo‘lat Arslonkulovlar dars berdilar (ganch o‘ymakorligidan).

1978 yilda O‘zbekistonning bir necha shaharlarida «Usto» xalq san’ati birlashmalari tashkil etildi. Birlashmaning tashkil etilishi xalq amaliy san’ati rivojlanishiga, ustalarning ijodiy

mehnatini tashkil etish va tayyorlangan buyumlarni sotishda, xamda ustalarimizning shogirdlar tayyorlashida muhim rol o‘ynaydi. Xalq amaliy san’ati ustalari qadimiy o‘zbek milliy an’anasi asosida shu san’at turlari bo‘yicha yoshlarni yig‘ib brigadalar tuzib o‘z xunarlarini shogardlariga o‘rgatib kelmokdalar

Xulosa qilib aytganda xunarmandchilik Sharq xalqlarining kadimiy kadriyati bo‘lib, u asrlar davomida ma’naviyati, o‘y-xayollari orzu-istaklarini o‘zida ifodalab kelayotgan san’at hisoblanadi. Uning o‘ziga xos milliylik xususiyatlari, ta’limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari, usta-shogird an’analari o‘rtasidagi axloq odob mezoni, madaniyati, yosh avlodda xunarmandchilik kasbiga mehr-muhabbatini o‘stirishda muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. T.: “O‘zbekiston”. 2017 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.02.2025 yildagi 78-son. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.02.2025 y., 09/25/78/0130-son.
3. Тулкинова.Х. (2022). Innovatsion yondashuv asosida o ‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari. *Современные тенденции инноватsiонного развития науки и образования в глобальном мире*, *1*(4).
4. Maulia D. Kembara, Rama Wijaya Rozak, Vini Agustiani Hadian – *Research-based Lectures to Improve Students’ 4C Skills*, 2019.
5. Nilufar Tuliboyeva – *A Methodology for Developing 4K Skills in English*, 2024.
6. Tulqinova X.T. Technology in education electronics-didactic occupation means without applying the effectiveness of the organization // International Multidisciplinary scientific conference on ingenious global thoughts hosted from KualaLumpur, Malaysia. May 31st 2021: https://conferencepublication.com
7. Tolqunovna.T.X. (2023). Development of students' professional interests based on an innovative approach. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, *19*, 157-159.
8. S.B.Maxkamova BUYUK SHOIR ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TASVIRIY SAN’AT ASARLARIGA TA’SIRI Vol. 3 No. 15 (2026): International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education https://intconf.online/index.php/icarhse/article/view/900

9. Maxkamova Saodat Baxtiyarovna.PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE PREPARATION OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS FOR THE ARTISTIC ANALYSIS OF THE WORKS OF CHINGIZ AKHMAROV. (2026). *International Journal of Artificial Intelligence*, *6*(02), 188-193. https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/10660

10.Maxkamova Saodat Baxtiyarovna Qalamtasvir fanida grafik rassomlar ishlarini badiiy tahlil qilishga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari.Vol. 9 No. 1 (2026): Pedagogik Tadqiqotlar Jurnali 3-10 https://wosjournals.com/index.php/ptj/issue/view/56

11.TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA BADIIY IDROKNI RIVOJLANTIRIShNING PEDAGOGIK ShART-ShAROITLARI Sunatulla Fayzullaevich Abdirasilov,Saodat Baxtiyarovna Maxkamova .Vol. 9 No. 1 (2026): Pedagogik Tadqiqotlar Jurnali 11-16 https://wosjournals.com/index.php/ptj/issue/view/56

12 .Махкамова Саода Бахтияровна. (2026). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫХ ИСКУССТВ К

ХУДОЖЕСТВЕННОМУ АНАЛИЗУ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ЧИНГИЗА АХМАРОВА. IQRO INDEXING, 19(02), 387-392. https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/

13.Махкамова Саода Бахтияровна. (2026). Творчество художников в развитие современнойживописи узбекистана Vol. 3 No. 13 (2026): AMERICAN SCIENTIFIC CONFERENCE
https://intconf.online/index.php/icarhse/article/view/723

14.MAXKAMOVA , S. (2023). TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI BADIIY TAXLIL QILISHDA RASSOM KAMOLIDDIN BEXZOD IJODIDAN FOYDALANISH MASALALARI. *Journal of Culture and Art*, *1*(8), 107–114. Retrieved from https://imfaktor.com/index.php/jocaa/article/view/767

15.Maxkamova , S. B. (2023). РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КОМПОЗИЦИИ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(7), 222–230. Retrieved from https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1017

16.Саодат Бахтияровна Махкамова (2023). ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ СПОСОБНОСТИ УЧАЩИХСЯ В ШКОЛЕ И КАК ОНИ ПРОЯВЛЯЮТ СВОИ ТВОРЧЕСКИЕ СПОСОБНОСТИ В ЭТЮДАХ, КОМПОЗИЦИОННЫХ ВАРИАНТАХ, В СВОИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ. Oriental Art and Culture, 4 (5), 311-3

17.S.B.Maxkamova,Abduraxmonova Zulayxo. (2025). ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TASVIRIY SAN'AT ASARLARIGA TA'SIRINING DOLZARB MASALALARI. *ИКРО журнал*, *14*(02), 943–947. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/iqro/article/view/77048

18.Makhkamova , S. (2025). PREPARING FUTURE TEACHERS FOR ARTISTIC ANALYSIS OF WORKS OF FINE ART. *International Journal of Artificial Intelligence*, *1*(2), 547–553. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/74167

19.Makhkamova Saodat Bakhtiyarovna (2024). THE FORMATION OF VISUAL ARTS SKILLS OF SCHOOLCHILDREN IN PERFORMING SKETCH, COMPOSITION AND CREATIVE WORKS. European Journal of Arts, (1), 63-66. doi: 10.29013/